MAKTABGACHA TA’LIM: O‘TMISH SABOQLARI VA BUGUNGI KUN ISLOHOTLARI

Qodirqulova Marjona Qo‘chqorboy qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Email:*qodirqulovamarjona36@gmail.com*
Ilmiy raxbar:Xakimov Ravshan
GulDPI katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining shakllanish tarixi va bugungi kundagi islohotlar tahlil qilinadi. Unda Sharq mutafakkirlari hamda jadidlar merosining zamonaviy pedagogik tamoyillar bilan uyg‘unligi yoritilgan. Shuningdek, sohani modernizatsiya qilish, qamrovni kengaytirish va ta’lim sifatini oshirish borasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. O‘tmish tajribasi asosida barkamol avlodni tarbiyalashning strategik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarixiy tajriba, jadidlar merosi, islohotlar, pedagogika, milliy tarbiya, ta’lim sifati.

Аннотация: В статье анализируются история формирования и современные реформы системы дошкольного образования в Узбекистане. Рассматривается наследие восточных мыслителей и джадидов в контексте современных педагогических стандартов. Освещены приоритетные направления государственной политики по модернизации сферы и расширению охвата детей. На основе исторического опыта обоснована стратегическая роль дошкольного образования в воспитании гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: дошкольное образование, исторический опыт, наследие джадидов, реформы, педагогика, национальное воспитание, качество образования.

Abstract: This article analyzes the history and modern reforms of the preschool education system in Uzbekistan. It explores the pedagogical heritage of Eastern thinkers and Jadids in the context of current educational standards. The paper highlights state policy priorities regarding modernization and the expansion of educational coverage. Based on historical experience, it emphasizes the strategic role of preschool education in fostering a well-rounded generation.

Keywords: preschool education, historical experience, Jadid heritage, reforms, pedagogy, national upbringing, quality of education.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish hamda bolalarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash borasida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so’nggi yillarda davlat siyosati darajasida ushbu sohaga alohida e’tibor qaratilib, yangi ta’lim muassasalari tashkil etilmoqda, ilg’or pedagogic texnalogiyalar joriy qilinmoqda va kadrlar salohiyatini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimi har qanday jamiyatning kelajagini belgilovchi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda bolaning intellektual, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishining asoslari shakllanadi. Shu boisdan ham maktabgacha ta’limga bo’lgan e’tibor doimo dolzarb masala sifatida qaralib kelinadi. Tarixiy rivojlanish jarayonida ushbu tizim turli bosqichlarni bosib o’tgan bo’lib, unda to’plangan tajribalar bugungi kun islohotlari uchun muhim nazariy va amaliy asos bo’lib xizmat qilmoqda.

Maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta’limga bosqichma-bosqich qamrab olishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miramonovich 2017-yilning 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni bilan Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi. Vazirlik maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ma’suldir. Shu tufayli maktabgacha ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini

yuritayotgan tashkilot maktabgacha ta’lim yoshidagi 3-7 yosh bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotiga qamrab olishi darkor.[1]

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 20-dekabr kungi murojaatnomalarida bog’chalar sonini ko’paytirish, ulardagi ta’lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo’yicha besh yillik dastur ishlab chiqilganligini, bog’cha qamrovini 80 foizga yetkazish bo’yicha xususiy sektorga qo’shimcha sharoitlar yaratilishini ta’kidllab o‘tishdi.[2] Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimiga 3-7 yoshli 2.5 mln bola qamrab olingan Respublikada 6154 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Ulardan 5586 tasi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, 568 tasi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotidir. Bugungi kunda 859 141 nafar bola maktabgacha ta’limga qamrab olingan, bu umumiy hisobining 340 foizi demakdir. Jami 1 mln 600 dan ziyod bola maktabgacha ta’limga qamrab olinmagan.[3]

Maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishida muhim yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hanuzgacha yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud. Jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olinmaganligi, ayniqsa, qishloq joylarda bog‘chalarning yetishmovchiligi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, ta’lim sifatining notekisligi, o‘quv dasturlarining zamonaviy talab va ilmiy asoslarga to‘liq mos kelmasligi tizim oldidagi jiddiy muammolardan hisoblanadi. Davlat xususiy sheriklik mexanizmlarining to‘laqonli ishlamasligi, xususiy bog‘chalarning sifati va ularning moliyaviy jihatdan hamma uchun ham qulay emasligi kabi masalalar ham e’tibor talab qiladi. Bundan tashqari, ayrim maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamonaviy talablar darajasida emasligi va ta’lim muhitining yetarlicha rivojlanmagani ham ta’lim jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bolalarni maktabga sifatli tayyorlashda ota-onalar bilan samarali hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani esa bu jarayonning yanada takomillashtirilishini taqozo etadi. Shu bois maktabgacha

ta’lim tizimida mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va ularni hal etish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

Dunyo tajribasiga asoslangan STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) yondashuvi bolalarni mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvga o‘rgatmoqda. Bundan tashqari, kreativ ta’lim metodikalari, jumladan, Montessori, Reggio Emilia va Waldorf pedagogikasi elementlari maktabgacha ta’lim tizimiga integratsiya qilinmoqda. Bu esa bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning maktab ta’limiga sifatli tayyorgarligini ta’minlashga xizmat qiladi.[5] Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanayotgan bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning shaxsiy qobiliyatlarini, intilishlarini, iqtidorini, intilish va ehtiyojlarini qondarish, milliy va o‘zbek xalqiga mos an’anaviy urf-odatlarga, mustaqillik g’oyalariga sodiq holda tarbiyalash, maktabgacha ta’lim yoshidagi bplalarga qo’yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta’limiga mos va xos bo‘lgan tarzda tarbiyalashdan iborat.[6]

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining bosib o‘tgan tarixiy yo‘li va bugungi kundagi shiddatli islohotlar bir-birini to‘ldiruvchi yagona jarayondir. O‘tmish saboqlari — buyuk mutafakkirlarimiz va jadid ma’rifatparvarlarining o‘gitlari biz uchun ma’naviy poydevor bo‘lib xizmat qilsa, bugungi kun islohotlari ushbu poydevor ustiga zamonaviy, raqobatbardosh va innovatsion ta’lim binosini qurish imkonini bermoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limga kiritilgan sarmoya — bu kelajakka kiritilgan eng foydali sarmoyadir. So‘nggi yillarda sohani tubdan yangilash, qamrov darajasini oshirish va pedagoglar malakasini yuksaltirish borasida tashlangan qadamlar mamlakatimizning intellektual salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “ Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni

2. .O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “ Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori.

3. “Ilk Qadam” davlat o’quv dasturi

4. A.Z Baxodirovna”Ta’limiga tayyorlashga ta’sir etuvchi omillar”, Science and innovation 3 (special issue 31), 187-193

5. Irmatova Ma’mura Djuraevna PERIOD OF KINDERGARTEN AGE - THE BEGINNING STEPS OF EDUCATION, THE FORMATION OF SOCIALLY NECESSARY CHARACTERIZATIONS IN A PERSON IJSSIR, Vol. 11, No. 06. June 2022 41-44

6. Qosimova Sh.N., Otaqulov Sh.M. “Maktabgacha ta’lim tizimida mehnat munosabatlari” O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2024 yil